

**TASVIRIY SAN'AT AMALIY MASHG'ULOTLARIDA GIPSDAN
YASALGAN ROZETKA RASMINI CHIZISH KETMA - KETLIGI**

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Tasviriy san'at va muhandislik garfikasi” yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola tasviriy san'at amaliy mashg'ulotlarida o'rgatiladigan gips rozetka rasmini chizish ketma-ketligi, gips rozetka turlari va ushbu jarayonda yo'l qo'yiladigan hatolar hamda rozetka chizishda tasvir mukammal va muvaffaqiyatli chiqishi uchun kerak bo'ladigan bir qancha amaliy va nazariy bilim – ko'nikmalar keng yoritadi.


Kalit so'zlar: Predmet, gips, naqsh, rasm, rassom, natura, shakl, hajm, chiziq.

Rasm chizishni o'rganishda murakkab bo'lgan gipsli predmetlar bo'yicha mashqlar kapitell, rozetkalar chizishga alohida diqqat qaratiladi. Gips naqsh rozetkasini tasvirlashdan asosiy maqsad talabalarni yuqori kurslarda murakkab elementli obyektlarning shakllari va bo'rtma naqshlarini tasvirlay olishga o'rgatishning poydevori hisoblanadi. Tasviriy san'at darslarida gipsdan yasalgan rozetkani chizish rassomlarda birmuncha diqqat va e'tibor talab etadi. Murakkab bo'lgan naqsh rozetkasini ishlash murakkab jarayondir. Gipsdan yasalgan modellarni qo'zg'almas joyga o'rnatish asosida rasm ishlash rassomda qulaylik paydo qiladi. Rassom naturani oldidan, yondan va to'rtidan uch ko'rinishda, gorizont chizig'iga nisbatan turli holatda tasvirlash imkoniyatiga ega. Bu esa o'z navbatida rassom uchun perspektiva qonunini mukammal egallashida yordam beradi. Naqshlar turli ko'rinishga egadir.



Qo'yilgan vazifani amalga oshirishda relyefli ornamentni bajarish maqsadga muvofiq. Rozetkaning konstruktiv qurilishi va uni soya-yorug' tusini belgilash

o'quvchilardan diqqat-e'tiborni talab etadi. Rozetka chizuvchilarga nisbatan ko'z balandligida och kulrang fonda joylashtiriladi. Talaba rozetkani yon tomondan kuzatib, ayrim perspektiv qisqarishlarning tasvirini bajarishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.



NAQSH ROZETKANI QALAMTASVIRDA CHIZISH KETMA-KETLIGI

Naqsh rozetkasining umumiy shaklini bajarish jarayonida uning asosiy nisbatlari bo'yining uzunligiga hamda eni va chuqurligiga nisbatan to'g'ri belgilab olinishi muhim. Ustki qism shaklini tasvirlashda o'quvchilar shakllarning bir xil emasligini ko'radi. Bu ularni yanada har bir bo'lakni diqqat e'tibor bilan tahlil etishga yo'naltiradi. Haqqoniy tasvirlashning asosiy qonunlaridan biri geometrik yoki islmiy naqshni tahlil etib, uning xarakterli bo'laklari aniqlanib, bosqichma-bosqich tasvirlanadi. Qog'oz yuzasida juda yengil chiziqlar bilan rozetka tomonlarinin Gipsli bu nusxalar bizni oldingi davrlarda yashagan buyuk musavvir - me'morlar ishlari bilan tanishtiradi. Hamda jahonning barcha badiiy maktablari tajribasida chizish uchun model hisoblanadi. Naqshlar bir qancha turlarga bo'linadi. Chizishni o'rganish jarayonida ko'proq o'simliksimon gipsli naqshlar chizilishi jahon badiiy ta'limida qo'llanilib kelinmoqda. Ular gul, meva, barg va hokazolarning stilizatsiya qilingan shakllaridir Gips taxtaga tushirilgan ushbu gullar tasviri ham qog'ozga kompozitsion joylashtirishdan boshlanadi. Bunda naturani diqqat bilan kuzatib, uni vertikal

joylashtirish kerak. Gips taxtaning qog'ozga nisbatan to'g'ri joylashtirilishi juda muhimdir. Bunda natura yuqoriga, pastga chiqib ketmasligi, o'ngga yoki chapga surilib qolmasligi, yoki qog'ozga nisbatan katta yoki kichik bo'lib qolmasligi kerak. Shundan so'ng gips taxtaga tushirilgan naqshning eng katta o'lchamlari belgilab olinadi. Keyingi bosqichda katta o'lchamlar ichidagi barcha detallar aniqlanadi. Chizayotgan vaqtda perspektiv qisqarishga e'tibor berish kerak. Shaklning hajmi, chiziqli va konstruktiv tuzilishini aniqlab, tahlil qilish zarur.



NAQSH ROZETKA QALAMTASVIRI

Bu jarayonda ish chizilayotgan naturaning umumiy ko'rinishini qog'oz yuzasiga joylashtirishdan boshlanadi. So'ng yengil chiziqlar yordamida predmetning umumiy shakli va asosiy o'q chiziqlari topiladi. Rozetkaning umumiy shakli bizga aylanani eslatadi. O'rtasida shar shakli, to'rt tomonidan chiqib turgan shoxsimon elementlar bo'lib, ularni bir - biriga tutashtirsak, to'rtburchak hosil bo'ladi. Shundan so'ng naturani aniqlashtirishga o'tamiz. Naturaga diqqat bilan qaralsa, uning ichida to'rtta katta barg borligini ko'ramiz. Naturadagi asosiy elementlar o'rni aniqlangandan so'ng uning detallari aniqlanadi. Bu o'rinda asosiy element barglaridir. Ularni chizganda barchasi bir - biriga o'xshashligini unutmaslik kerak va tasvirda ham shunga erishish zarur. Shakl to'liq, o'ziga o'xshash chiqqandan so'nggina bir bor natura bilan solishtiriladi hamda har bir elementning yorug' – soya, yarim soyalari belgilanadiki, bu chizuvchiga kelgusidagi bosqichlar uchun poydevor vazifasini o'taydi. Rozetkadagi belgilangan yorug' – soyalar aniq ishlanishi uning hajmini yoki bir butun yaxlit tasvirini idrok qilish imkonini beradi.

Qog'oz yuzasida juda yengil chiziqlar bilan rozetka tomonlarining nisbatiga qarab qog'oz tik yoki yotiq holda qo'yiladi. Naqsh namunasining vertikal tekislikka nisbatan og'maligi, tomonlardan birining ikkinchisiga nisbati, perspektiv qisqarish va ufq

chizig'ining qanday holda turishi chiziqli konstruktiv usulda bajariladi. Avvalo tasvirlangan ikki qismli zanjir elementi aniqlanadi. Buning uchun zanjiraning gips taxtasidagi eng yuqori va pastki qismi hamda chekka nuqtalari belgilanadi. Ma'lumki, ushbu rozetkaning tomonlari, burchak graduslari bir-biriga teng va simmetrik. Shuning uchun uni teng ikkiga bo'lib o'tuvchi nuqtalardan gorizontaal va vertikal to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi, o'tkazilgan vertikal ikki chiziq bir-biriga parallel bo'lsa, gorizontaal chiziq ganch taxtasining yuqori va pastki gorizontaal qirralariga parallel bo'lmagan holda o'z holicha o'tadi. Chunki, bu ikki to'g'ri chiziq talaba qaysi nuqtadan turib tasvirlayotganiga qarab perspektiv qisqarib boradi va ma'lum masofaga borib bir nuqtada uchrashadi (kesishadi). So'ng panjaraning qalinliklari belgilanadi va ular to'g'ri chiziqlar orqali birlashtiriladi.



Gipsli natyurmort qo'yilmasi.

Chizishni o'rganish jarayonida hozirgi kunga qadar ko'proq o'simliksimon gipsli naqshlar chizishdan foydalanilmoqda. Bular gul, barg, meva shaklidagi gipsli naqshlardir. Gips qogozga tog'ri joylashtirilishi eng muhim qoidalardan biri. Naqsh qog'ozga nisbatan katta yoki kichik hamda qog'ozdan onda va chap tomonga tepa yoki pasga joylashib qolmasligiga alohida e'yibor berish kerak. Chizishdan oldin natura yahshilab ko'zdan kechiriladi. Gips rozetkaning bo'y va en o'lchamlari olinib qog'oz yuzasiga homaki va yengil chiziqlar bilan chiziq tortamiz bunda albatta naqsh rozetkaning perspektiv qisqarish jihatlariga ham alohida etibor beramiz.

Keyin esa naqsh rozetkaning eng katta o'lchamlarini belgilab olamiz. Shundan so'ng kichik o'lchamdagi barcha qismlarini belgilab chiqamiz. Chizish jarayonida shaklning chiziqli va konstruktiv tuzilishini aniqlab, tahlil qilish kerak. Gips

rozetkaning chiziqli tuzilishini chizib bo'lgandan so'ng,shaxsiy va tushuvchi soylarini, tus munosabatlarini aniqlanadi. Tasvirlash jarayoninig yakuni soya munosabatlarini topish soya,yarim soya, va reflekslarni bajarish va natura tasvirining yahlitligiga erishish bilan tugallanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Boymetov B. Qalamtasvir. -T.: "Musiqqa" nashriyoti, 2006.
2. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. -T.: Ilm-ziyo, 2005.
3. Ten N.D. Gips modellarning rasmi chizish. -T.:O'qituvchi,1994.
4. Muratov X.X, Qalamtasvir. -T.: Ijod –print, 2020.
5. Boymetov B, Qalamtasvir.Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2010-yil.
6. Turdaliyev A. Qalamtasvir asoslari. –N. Faxrizoda, 1999.